Emro Science and Education
International open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz
OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 1 No. 4 (2024) · "Milliy iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish va yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlarini t... DOI: 10.5281/zenodo.24321009

ta'minlashning ustivor yo'nalishlari" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman

O'ZBYEKISTON RYESPUBLIKASIDA SOLIQ ISLOHOTLARINI AMALGA OSHIRISHDA SOLIQ MA'MURCHILIGINI TAKOMILLASHTIRISH

Jumayev Shuxrat
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil tadqiqotchisi (PhD)
sh.jumaev@tsue.uz

Annotatsiya: Bugungi kunda soliq organlari faoliyatini tubdan takomillashtirish, sohaga ilg'or xalqaro standartlarga asoslangan yangi boshqaruv tizimini joriy etish, ichki biznes jarayonlarini optimallashtirish va tizimlashtirish orqali tizim xodimlarining faoliyati samaradorligini keskin oshirish, fuqarolarga qonun bilan belgilangan soliqlar va yig'imlarni to'lashi shartligi bo'yicha Konstitutsiyada ko'rsatilgan majburiyatlarini ixtiyoriy bajarish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish hamda sohani takomillashtirishni yagona yondashuv asosida isloh qilishni talab etmoqda.

Kalit so'zlar: Soliq, soliq islohotlari, soliq ma'murchiligi, raqamlashtirish, soliq qarzi, soliq stavkasi, shaxsiy kartochka, yuklama

Bugungi kunda soliq idoralari tomonidan soliq ma'murchiligini amalga oshirishda bir qancha muvaffaqiyatli ishlar amalga oshirilishi bilan bir qatorda muammoli, echimini kutayotgan bir qancha masalalar ham mavjud.

Soliq organlarida soliq to'lovchilarning shaxsiy kartochkalarini yuritish bo'yicha bugungi kunda 15 ta yo'nalishda jami 48 turdagi amallar bajarilib kelinmoqda.

Ushbu amallarning 29 tasini soliq inspektsiyalarida, 34 tasini Soliq boshqarmalarida, 30 tasini Yirik soliq to'lovchilar bo'yicha hududlararo soliq inspektsiyasida va barchasini Soliq qo'mitasida bajarish imkoniyatlari mavjud.

Shu sababli, tashkilotlarning shaxsiy hisobvaraqlarini markazlashgan holda yuritish, ularni soliq majburiyatlarini o'z vaqtida va to'g'ri bajarishida ko'maklashish, G'aznachilik xizmati qo'mitasi va yuqori byudjet tashkilotlari bilan tarkibidagi korxonalarining o'zaro elektron axborot almashinuvini tashkil etish orqali soliq ma'murchiligini yanada soddalashtirish maqsadida alohida tuzilma tashkil qilish taklif etiladi.

2024 yilning 1 yanvar holatiga Majburiy ijro byurosida faqatgina yuridik shaxslar bo'yicha 276,9 mingta 4 610,4 mlrd. so'mlik ijro hujjatlari ish yurituvida mavjud bo'lib, mazkur ijro hujjatlaridan 217,8 mingta (jamiga nisbatan 78,7 foiz) 3 424,0 mlrd. so'mlik (74,3 foiz) ijro hujjatlarining ijro muddati ikki oydan oshgan. O'rtacha bitta davlat ijrochisiga 722,9 ta ijro hujjati to'g'ri kelib, davlat ijrochilari ish yuklamasi amaldagi me'yorlarga nisbatan qariyb 5 baravarga yuqoriligini ko'rsatmoqda.

Mol-mulk, yer va deklaratsiya asosida hisoblangan daromad soliqlari bo'yicha 2024 yil 1 yanvar holatiga 3,0 mln. nafar jismoniy shaxslarning soliq qarzi 2,3 trln. so'mni tashkil etib, 2022 yilning shu davriga nisbatan 21 foizga oshgan.

Ushbu soliqlarning jami tushumdagi ulushi 2,4 foizni tashkil etib, undirish ishlariga 4,4 ming nafar yoki barcha xodimlarning 67 foizidan ortig'i jalb qilinganligini ko'rishimiz mumkin.

Shuningdek, 20,6 mingta korxonalardan 5,4 mingtasida (26,2 foiz) 69,7 trln. so'mlik debitorlik qarzi hisobidan 4,6 trln. so'mlik soliq qarzini undirish imkoniyati mavjud.

Mol-mulk, yer va deklaratsiya asosida hisoblangan daromad soliqlari bo'yicha 2024 yil 1 yanvar holatiga 3,0 mln. nafar jismoniy shaxslarning soliq qarzdorligi 2,3 trln. so'mni tashkil etib, soliq qarzi 2022 yilning shu davriga nisbatan 21 foizga oshgan.

Ushbu soliqlarning jami tushumdagi ulushi 2,4 foizni tashkil etib, undirish ishlariga 4,4 ming nafar yoki barcha xodimlarning 67 foizidan ortig'i jalb qilinganligini ko'rish mumkin.

2023 yilda soliq organlari tomonidan 26,9 mingta korxonalarning 11,8 trln.so'mlik soliq qarzi yuzasidan mol-mulklari xatlangan bo'lib, amaldagi qonunchilik bo'yicha davlat ijrochisi tomonidan qayta xatlov amalga oshiriladi.

Published: 23.12.2024

Cite this article: Jumayev Shuxrat (2024). O'zbyekiston Ryespublikasida soliq islohotlarini amalga oshirishda soliq ma'murchiligini takomillashtirish. Emro Science and Education, 1(4). https://doi.org/10.5281/zenodo.24321009

© 2024 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.

Amaliyotda qarzdorning mol-mulkini xatlash uchun borilganda, avtotransport vositalarining joyida mavjud bo‘lmasligi, xizmat safari bilan uzoq hududlarga yuborilgan vajlari ko‘plab uchrab turmoqda. 12 370 ta qarzdor yuridik shaxslarning 109,3 mingta avtotransprot vositalari mavjud.

Shu sababli, Soliq qo‘mitasi huzurida alohida soliq qarzini undirish bo‘yicha tuzilma tashkil etish va ushbu tuzilmagan soliq qarzini profilaktik tadbirlar hisobiga soliq qarzini undirishni kengaytirish, soliq qarzini majburiy undirish tizimi samaradorligini oshirish vazifalari yuklatilib, unga qo‘shimcha ravishda Majburiy ijro byurosining quyidagi vakolatlari berilishi taklif etiladi.

- soliq qarzini shaxsiy g‘azna hisobvaraqlaridan so‘zsiz undirish hamda pul mablag‘larini xatlash va ulardan foydalanishga doir cheklovlar o‘rnatish;
- soliq qarzini undirish maqsadida bank hisobvaraqlaridagi pul mablag‘larini xatlash va ulardan foydalanishga doir cheklovlar o‘rnatish;
- jismoniy shaxslarning soliq qarzini undirish to‘g‘risida qarorlar qabul qilish, undiruvni ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlarga qaratish;
- soliq qarzini debitorlar hisobidan undirish;
- jismoniy shaxslarning mol-mulkiga taqiq qo‘yish va xatlash;
- yuridik va jismoniy shaxslar mol-mulkini olib qo‘yish, saqlashga topshirish va qidiruv e’lon qilish;
- qarzdorning avtotransport vositalarini tezkor to‘xtatish bo‘yicha vakolatli organlar bilan hamkorlikda choralar ko‘rish;

Bugungi kunda soliq to‘lovchilar tomonidan realizatsiya qilingan ish, xizmatlar va tovarlarning narxini soliq to‘lashdan qochish maqsadida kamaytirib ko‘rsatish xollar ko‘plab uchramoqda.

Amalga oshirilgan tahlillarda Namangan shahrida 2023 yilda sotilgan 491 ta (24,5 ming kv.m) ob’ektning jami oldi-sotdi qiymati 16,0 mlrd.so‘mni tashkil etib, 1 kv.m. o‘rtacha 700 ming so‘mdan sotilgan. Ushbu ob’ektlarning narxi o‘rtacha bozor narxida hisoblanganda 110,5 mlrd.so‘mni (1 kv.m. 4,5 mln.so‘m) tashkil etadi.

Misol uchun, “A” MChJ tomonidan 70 kv.m. turar joy 2023 yil 18 mayda fuqaro bilan tuzilgan oldi-sotdi shartnomasiga asosan 41 mln.so‘mga sotilgan (joyiga chiqib o‘rganilganda 22 ming dollarga sotib olinganligi aniqlangan). Mazkur tashkilot tomonidan ushbu tarar joy majmuasidagi aynan shunday xonadon 2023 yil 17 yanvarda boshqa fuqaroga 381 mln.so‘mga sotilgan.

Buxoro tumanida esa 9,6 ming kv.m shartnoma asosida 2023 yilda sotilgan uy-joylarning 1 kv.m o‘rtacha narxi 3,1 mln.so‘mni va dekabr oyida 1,5 mln.so‘mni tashkil etgan.

Shu sababli, qurilish sohasidagi tovarlar va xizmatlarning bozor narxidan kelib chiqqan holda soliq bazasini aniqlash tartibini joriy etish taklif etiladi. Keyinchalik esa ushbu tajribadan kelib chiqib, boshqa sohalarda xam ushbu amaliyotni qo‘llash taklif etiladi.

Xulosa qilib aytganda, soliq organlari faoliyatini tubdan takomillashtirish, tadbirkorlik sub’ektlariga xizmat ko‘rsatish darajasini yangi bosqichga chiqarish hamda soliq tizimida raqamlashtirishni izchil davom ettirish orqali xam soliq to‘lovchilarga qulay soliq hisoblash va to‘lash imkoniyatini berish bilan birgalikda soliq organlariga xam soliq ma’murchiligini amalga oshirishdagi faoliyatlari yanada takomillashadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Жумаев, Ш. (2023). Йирик солиқ тўловчилар солиқ маъмурчилигини такомиллаштиришнинг ўзига хос хусусиятлари. Iqtisodiy Taraqqiyot Va Tahlil, 1(1), 131–136.

2. Жумаев Ш. Ўзбекистон Республикасида солиқ маъмурчилиги ва солиқ тизими стратегиясини такомиллаштириш масалалари // Экономика и социум. 2024. №4-1 (119).

3. Жумаев, Ш. (2024). Ўзбекистон Республикасида солиқ маъмурчилигини такомиллаштириш. Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil, 2(4), 368–374. https://doi.org/10.60078/2992-877X-2024-vol2-iss4-pp368-374

4. Jumaev S. On improving the methodology of tax administration of large taxpayers in the republic of Uzbekistan //Gospodarka i Innowacje. – 2024. – T. 48. – C. 330-336.

RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA ISHLAB CHIQARISH XARAJATLARINI PASAYTIRISH YO`NALISHLARI VA ULARNING IQTISODIY AHAMIYATI

Xashimova Zuhraxon Kahramonovna
Farg`ona Politexnika Instituti Magistranti
zuhrahasimova007@gmail.com

Annotatsiya. So`nggi yillarda raqamli iqtisodiyot texnologiyalarining rivojlanishi ishlab chiqarish jarayonlarini tubdan o‘zgartirib, ishlab chiqarish faoliyatidagi xarajatlarni pasaytirish uchun yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Zamonaviy texnologiyalar, avtomatlashtirish va raqamli yechimlar orqali korxonalarning ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga, resurslardan foydalanishni optimallashtirishga va ishlab chiqarilgan mahsulotlarning raqobatbardoshligini ta’minlashga xizmat qilmoqda. Quyida raqamli iqtisodiyotda ishlab chiqarish xarajatlarini pasaytirish yo‘nalishlari va ularning iqtisodiy ahamiyati tahlil qilinadi.

Kalit so`zlar. Raqamli iqtisodiyot, ishlab chiqarish xarajatlari, texnologiya, avtomatlashtirish, texnologik transformatsiya.

Kirish

Barchamizga ma`lumki, raqamli iqtisodiyot — bu axborot texnologiyalari va raqamli vositalar orqali iqtisodiy jarayonlarni boshqarish, optimallashtirish va innovatsiyalarni amalga oshirishdir. Hozirgi raqamli iqtisodiyot sharoitida ishlab chiqarish xarajatlarini pasaytirish, samaradorlikni oshirish va raqobatbardoshlikni ta'minlashning yangi usullari paydo bolmoqda. Hukumatimiz tomonidan raqamli iqtisodiyot sharoitida iqtisodiyotni yanada rivojlanishini ta`minlash yuzasidan ko`plab ishlar amalga oshirilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2020-yilda tasdiqlangan "Raqamli O‘zbekiston – 2030" strategiyasi, O‘zbekiston Respublikasining Qonunchilik palatasi tomonidan 2020-yil 7-aprelda qabul qilingan O‘RQ-630-sonli "Innovatsion faoliyat to‘g‘risida"gi qonuni bularga yorqin misol bo`la oladi. Ularda asosiy maqsad etib, raqamli texnologiyalarni rivojlantirish, iqtisodiyotning barcha sohalariga innovatsion yechimlarni joriy qilish va iqtisodiy samaradorlikni oshirish belgilangan.

Ushbu tezisni yozishda ilmiy mushohada, adabiyot tahlili, statistik, mantiqiy tadqiqot usuli, nazariy tahlil kabi usullardan foydalanildi

Raqamli iqtisodiyot sharoitida ishlab chiqarish xarajatlarini pasaytirish quyidagi yo`nalishlar orqali amalga oshirilishi mumkin.